

Shaharda elektr toki, tabiiy gaz va ko‘mirda ishlaydigan isitish qozonlari ishlab chiqarilmoqda



Shaharda elektr toki, tabiiy gaz va ko‘mirda ishlaydigan isitish qozonlari ishlab chiqarilmoqda

Bugungi kunda aholi va ijtimoiy soha ob‘yektlarini energiya resurslari, jumladan, issiqlik bilan ta‘minlash dolzarb va asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunda xom ashyoni kam sarflaydigan, havfsiz ishlash texnologiyasiga ega bo‘lgan, ko‘mir bilan ishlaydigan qozonxonalarga talab yuqori.

Joriy yildan boshlab yurtimizdagi ijtimoiy soha ob‘yektlari, maktab va bog‘chalar isitish tizimi ko‘mirga o‘tkaziladi. Bu esa o‘z navbatida ushbu tipdagi isitish qozonxonalariga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Termiz shahri “Ma‘rifat” mahallasi hududida “TEPLO MONTAJ CENTRE VOSTOK” MCHJ tomonidan isitish qozonlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Bugun Termiz shahridagi ob'yektlarda o'rganish ishlarini olib borayotgan viloyat hokimi MCHning isitish qozonlari ishlab chiqarish korxonasi faoliyati bilan ham tanishdi. Shuningdek, korxonada mavjud muammolari o'rganilib, mas'ullarga ko'tarilgan masalalarni hal etish, korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar koeffitsientini kengaytirish bo'yicha zarur choralarni ko'rish bo'yicha topshiriq berildi.






Image not found or type unknown

